
“Besh tashabbus olimpiadasi”ning ikkinchi mavsumiga start berildi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 92-sonli qarori ijrosi yuzasidan shahrimizda besh tashabbus olimpiadasining ikkinchi bosqich musobaqalariga start berildi.

Bugundan boshlab Farg‘ona shahridagi barcha maktablarda sinflar o‘rtasida sportning quvnoq startlar, yengil atletika va "Zakovat" intellektual o‘yinlarining maktab bosqichlarini o‘tkazish boshlandi.

Musobaqalar yuqori saviyada o‘tkazish uchun barcha ta‘lim muassasalarida puxta hozirlik ko‘rilgan. Jumladan, shahrimizdagi 30- va 40-maktablarda mazkur musobaqaning ochilish marosimi namunaviy tarzda tashkillandi.

Tadbir davomida o‘quvchilarga musobaqa shartlari, o‘tkazilish tartibi haqida tushunchalar berildi. Sport musobaqasining ilk g‘oliblari maktab ma‘muriyati tomonidan munosib taqdirlanishdi.

2023-09-14 06:46:54